

# O'zbekistonda birinchi marta dissertatsiya taqdim qilmasdan fan doktorlik(DSc) ilmiy darajasi olish bo'yicha himoya bo'lib o'tdi

O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashda O'zbekistonda birinchi marta dissertatsiya himoyasisiz fan doktorlik ilmiy darajasini olish bo'yicha 2 ta himoya bo'lib o'tdi.



Ilmiy kengash a'zolari tomonidan **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risidagi nizomining 1-bob, 5-bandi talablariga muvofiq** U.B.Xalilovning "Uglerod nanostrukturalarining molekulyar darajadagi selektiv sintezi" mavzusida Molekulyar fizika va issiqlik fizikasi mutaxassiligi bo'yicha fan doktorlik (DSc) ilmiy darajasini dissertatsiya himoyasiz olish uchun tayyorlagan ishi ko'rib chiqildi va muhokama qilindi.

U.B.Xalilovning doktorlik ishi mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy maqolalarini impakt-faktori tegishli darajada va undan yuqori bo'lgan hamda Web of Science xalqaro tizimga kirgan ilmiy jurnallarda chop qilgan. Chop qilingan jurnallarning **eng yuqori impakt-faktori 20.95** (Account of Chemical Research, Web of Science tizimi bo'yicha)ni va eng kichik impakt-faktori esa 2.37 (Journal of Physics D: Applied Physics, Web of Science tizimi bo'yicha)ni tashkil qiladi. Ilmiy ishlar chop etilgan jurnallarning **umumiy impakt-faktori 89.68 ga va o'rtacha impakt-faktori esa 7.47 ga** teng. Talabgorning Skopus xalqaro bazasidagi **Xirsh indeksi 12 ga teng** va uning ilmiy ishlariga xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan (impakt faktori 2.32 - 54.30 bo'lgan jurnallarda) shu kungacha **380 marta havola** qilingan.

Institut huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash tomonidan U.B. Xalilov tayyorlagan doktorlik ishi taqdimoti yuqori baholandi hamda mavzu bo'yicha chop qilingan ilmiy maqolalari O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK ning ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risidagi nizomining 1-bob, 5-bandi talablariga to'liq mos keladi deb topilib, fizika-matematika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini berish loyiqligi haqidagi xulosa bir ovozdan ma`qullandi.



Shuningdek, Institut Ilmiy kengashi a'zolari tomonidan dissertatsiya himoyasisiz fan doktorlik (DSc) ilmiy darajasini olishga talabgor M.S.Yusupovning "Sovuq plazma bilan biomolekulalar o'zaro ta'sirining molekulyar mexanizmlari" mavzusida Molekulyar fizika va issiqlik fizikasi mutaxassiligi bo'yicha f.-m.f.d. (DSc) ilmiy darajasini himoyasiz olish uchun tayyorlagan ishi ham ko'rib chiqildi va muhokama qilindi.

M.S.Yusupovning doktorlik ishi mavzusi bo'yicha jami **23 ta** ilmiy maqolalarini impakt-faktori tegishli darajada va undan yuqori bo'lgan hamda Web of Science xalqaro tizimga kirgan ilmiy jurnallarda chop qilgan. Chop qilingan jurnallarning **eng yuqori impakt-faktori 7.79** (Redox Biology, Web of Science tizimi bo'yicha) ni va **eng kichik impakt-faktori esa 1.74** (Biophysical Chemistry, Web of Science tizimi bo'yicha)ni tashkil qiladi. Ilmiy ishlar chop etilgan jurnallarning **umumiy impakt-faktori 79.78 ga** va **o'rtacha impakt-faktori esa 3.47 ga** teng. Talabgorning Skopus xalqaro bazasidagi Xirsh indeksi 13 ga teng va uning ilmiy ishlariga xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan (impakt faktori 1.79 - 54.30 bo'lgan jurnallarda) shu kungacha **511 marta havola** qilingan.

Institut huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash tomonidan M.S.Yusupov doktorlik ishi taqdimoti yuqori baholandi hamda doktorlik ishi mavzusi bo'yicha chop qilingan ilmiy maqolalari O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK ning ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risidagi nizomining 1-bob, 5-bandi talablariga to'liq mos keladi deb topilib, Molekulyar fizika va issiqlik fizikasi ixtisosligi bo'yicha fizika-matematika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini berish loyiqligi haqidagi xulosa bir ovozdan ma`qullandi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu himoya Fanlar akademiyasida chet elda faoliyat ko`rsatib kelayotgan yuqori malakali vatandosh olimlarni respublikamizdagi yangilanish jarayonlariga jalb qilish borasida olib borilayotgan ishlarning natijasi bo`lib, U.Xalilov va M.Yusupovlar 10 yildan ortiq chet eldagilimiy safardan so`ng O`zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida ishlash istagini bildirishdi. Hozirda U.Xalilov Institutda yetakchi ilmiy xodim sifatida o`z faoliyatini boshladi.